

**TURIZM-OVIQ-OVQAT SANOATI RIVOJLANTIRISHNING  
ISTIQBOLLARI**

***Aliev Ahmad***

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti*

*Turizm yo nalishi 3-bosqich talabasi*

*ahmadaliyev695@gmail.com*

**Annotation:** Mazkur maqolada mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishida aholiga xizmat ko'rsatuvchi sohalarning o'rni va roli g'oyat sezilarli bo'lib, bunda turizmnинг ahamiyati boshqa xizmat ko'rsatish sohalariga qaraganda yuqori sur'atlar darajasida rivojlanishi bilan belgilanishi, shuning uchun ham keyingi yillarda O'zbekistonda turizmni rivojlanirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarga, shu jumladan oziq-ovqat sanoatiga katta e'tibor berilib, uning turistik salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari shakllantirish xususida fikr-mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Turizm, oziq-ovqat, rivojlanish, aholi, sayyoh, sayyohlik, iqtisodiyot, mahsulot, milliy, taom.

## **KIRISH**

Jannatmakon ona diyorimiz mustaqillikning dastlabki yillaridan ijtimoiy yo,,naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurish, barcha sohalarda, jumladan ta'lim, sport va bugungi kunga kelib keng miqyosdagi yangiliklarni o'zida mujassam aylayotgan turizm ham keng ko'lamli izchil islohotlarni amalga oshirish bo'yicha o'zining taraqqiyot yo'lini tanladi. Bunda aholini, mamlakatimizga tashrif buyurayotgan turist - mehmonlarni to'g'ri ovqatlanish me'yorlariga mos, yuqori sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanirishning asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Shu munosabat bilan fermer xo'jaliklarini rivojlanirish asosida iqtisodiy islohotlarni kuchaytirish, qishloqda ishlab

chiqarish munosabatlarini takomillashtirish, boshqaruvning bozor tamoyillariga mos tashkiliy tuzilmasini joriy etish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning mustaqilligini kengaytirish va ularning huquqiy himoyasini ta'minlashga doir chora- tadbirlar amalga oshirildi.

Turizm salohiyatini rivojlantirish va undan samarali foydalanish usullarini, unga innovatsion yondashuvlarni qo'llash nuqtai nazaridan o'rganish har qanday davlatda va turli davrlarda, ayniqsa inqiroz davrida dolzarb masala hisoblanadi.

Mamalakatimiz ham bundan mustasno emas, ayniqsa, barqaror rivojlanish sharoitida turizm sohasi, ma'lumki, dunyoda eng faol rivojlanayotgan va tubdan o'zgarib borayotgan soha hisoblanadi. Shunga ko'ra, turizm salohiyatidan foydalanish iqtisodiyotdagি inqiroz hodisalari sharoitida unga yangicha yondashuvlarni qo'llash bilan ham samarali bo'lishi mumkin. Bunda o'z-o'zidan oziq-ovqatlari mahsulotlari turizmi –gastronomik turizmning ham rivojlanib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

### **ASOSIY QISM**

Barchaga ma'lumki, oziq-ovqat sanoati milliy iqtisodiyotning oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaradigan keng tarmoqli sohasi hisoblanib, uning tarkibida go'sht-sut, sut-yog', yog'-moy, baliq mahsulotlari, un-yorma, makaron, mevasabzavot konservalari, sharbatlar, turli-tuman ichimliklar, shakar, qandolatchilik mahsulotlari, non va boshqa noz-ne'matlar ishlab chiqaradigan korxonalar mujassamlashgan bo'ladi. Hech kimga sir emas, bugun dunyoda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va uning ta'minlash masalasi global muammolar ichida salmoqlisi hisoblanadi. Mazkur muammo rivojlangan davlatlar bilan endi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bir xil ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Shu ma'noda, respublikamiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini sifatli mahsulotlar bilan qondirish ham yurtimiz taraqqiyoti oldida turgan dolzarb ishlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiy barqaror o'sishini, aholi farovonligini ta'minlash, aholini ijtimoiy himoya qilish, zaruriy birlamchi mahsulotlar bilan

ta'minlash muhim omillardan biridir. Bu muammoni hal etishda mavjud resurslardan samarali foydalanish, oziq-ovqat sanoati korxonalarini takomillashtirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilish maqsadida chet el investitsiyalarini jalg etishni yanada kuchaytirish zarur. Buning natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish va ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirish, yangi ishlab chiqarish liniyalarini joriy etish, mahsulotlar turini va sifatini oshirish, aholining iste'mol tovarlariga bo'lган ehtiyojini to'liq qondirish imkoniyati yuzaga keladi.

Barchamizga ma'lumki, har bir sayyoh, birinchi navbatda, madaniyatning ajralmas qismi hisoblangan, milliy va an'anaviy taomlarni, tayyorlash jarayoni, dasturxonga tortish usullari, ovqatlanish tartibi va pozitsiyalarini, ko'rish va bilish barobarida, sayohat qilayotgan davlatining, tarixini, iqtisodiyotini, davlat siyosati hamda mahalliy aholining e'tiqodlarini o'rganadi. Bu mahalliy oshxonadan tatib ko'rmoqchi bo'lган ko'plab sayyoohlarni (yoki ovqat iste'molchilarini) jalg qilmoqda va bu yangi va ekzotik joylarga sayohat qilishning asosiy sabablaridan biridir. Ham global, ham mahalliy miqyosda sayohat qilishga undaydigan kuchlardan biri bu mamlakatning mahalliy va qishloq taomlari haqida chuqr bilimga ega bo'lishdir. Ko'plab mahalliy taomlar ko'p asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan va mintaqalardan madaniyatni va merosini o'rganishning muhim vositasiga aylangan an'anaviy retseptlar bo'yicha tayyorlanadi, shu sababli ko,pchilikning qiziqishiga sabab bo'ladi. Yuqoridagi omillar sababli bugungi kunda oziq-ovqat turizmi yangi va rivojlanayotgan bozor sifatida ortib borayotgan qiziqish uyg'otmoqda.

Butun dunyoda, jumladan quyoshli o'lkamizda ham gastronomik turizmni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega, chunki u iqtisodiy rivojlanish, madaniy asrab- avaylash, ekologik barqarorlik, ijtimoiy o'zaro ta'sir, sog'liq va farovonlikni rag'batlantirishi, ushbu yo'nalishni turizmning qimmatli va barqaror shakliga aylantirishi mumkin. Gastronomik turizm ko'plab mamlakatlarda mashhur bo'lsa-da, uni ma'lum mamlakatlarga unumli foydalanib, iqtisodiy jihatdan foyda ko'rishmoqda. Har bir mamlakatning o'ziga xos oshxonasi va

ovqatlanish madaniyati mavjud bo'lib, ular mahalliy taomlar va lazzatlarni boshdan kechirishga qiziqqan sayyoohlarni jalb qilishi mumkin.

Bugungi kunda gastronomik turizm asosiy global tendentsiya bo'lib, ko'plab sayohatchilar mahalliy madaniyat, tarix va an'analarni aks ettiruvchi haqiqiy oziq- ovqat tajribalarini o'rganish va o'ziga hos taomlarini iste`moli uchun dunyo bo'y lab sayohat qilmoqdalar. Ushbu "shirin" turizmning rivojlanishi mahalliy iqtisodiyotga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi, chunki u fermerlar, hunarmand oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilar va restoranlar kabi oziq-ovqat ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan kichik korxonalar uchun ish o'rirlari yaratishi va daromad keltirishi bilan ahamiyatlidir.

Dunyo hamjamiyati turizm salohiyatini, oziq-ovqat sanoatini rivojlanish yo'nalishlarini chuqur o'rganib, izchil tahlilla asosida yurtimizda 2019-yil 5-yanvarda "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 5611-sonli Farmonida diyorimiz hududlarida turizmning istiqbolli turlari, shu jumladan gastronomik turizm salohiyatini hisobga olgan holda yangi turizm dasturlarini ishlab chiqish vazifasi belgilandi. Ta'kidlash joizki, O'zbekistonning gastronomik salohiyati ko'plab xorijlik sayyoohlarmiz tomonidan doim yuqori baholanib kelinadi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, gastronomik turizmni rivojlantirish juda istiqbolli sohalardan biri, sababi u turizm sohasini diversifikatsiya qilish, barqaror va haqiqiy tajribalarni ommalashtirish, turli manfaatdor tomonlar o'rtasida hamkorlik va innovatsiyalarni rivojlantirish imkoniyatini taqdim etadi. Gastronomik turizmni rivojlantirish va targ'ib qilish ichki va xalqaro miqyosda turizm sanoatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Turizmning ushbu shakli tobora ommalashib bormoqda, sayohatchilar mahalliy madaniyat va urf-odatlarni ko'rib chiqadigan haqiqiy oshpazlik tajribalarini qidirmoqdalar. Bundan tashqari gastronomik turizm mahalliy jamoalarga o'z taomlari va ichimliklarini targ'ib qilish, turizm bilan birga keladigan iqtisodiy va madaniy almashinuvdan foyda

olish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Bu, o’z navbatida, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning uzviy qismi sifatida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, ulkan ishlab chiqarish salohiyatiga ega agrosanoat kompleksini jadal rivojlantirish uchun barcha zarur sharoitlar yaratish va shu tariqa mamlakatimiz farovonligi hamda barqarorligining kafolati bo’lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Sh. Mirziyoyev, S. (2018). “2017-2022-yillarda O’zbekistonni rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo’nalishi”, Tashkent.
2. Sharipova Sevara. O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GASTRONOMI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 5 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7
3. Muslimbekova D.||Oziq-ovqat xavfsizligi-muhim masala||// Mening mulkim Chastnaya sobstvennost|. – Toshkent, 2014. 08 avgust
4. Umirzoqov, A. (2021). The Condition Of General Development Of The Mineral Resource Base In Uzbekistan.Scienceweb academic papers collection.
5. Tuxliev, S. (2008). Turizm asoslari.
6. G’ulomxasanov, E. M. O. G., & Rahmatillaev, O. X. O. (2021). O,,ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING DAVLAT RIVOJIGA QO’SHGAN HISSASI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 1(1), 52-56.
7. Usmanovich, S. A., Ikhtiyorovich, N. N., & Abdurashidovich, U. A. (2022). Processing of Layout Tails of Gold-Extracting Plants.CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES,3(1), 7-13
8. Ernazarov, G. (28.01.2021). Yangi xavfsiz va sog’lom turizm. Jenmin Jibao, Xitoy

---

## ***Modern education and development***

---

9. G'ofurovich, K. O., Abdurashidovich, U. A., Ugli, M. U. F., & Ugli, A. A. X. (2020). Justification Of The Need For Selective Development Of The Phosphorite Reservoir By Horizontal Milling Combines. *The American Journal of Engineering and Technology*, 2(11), 159-165
10. <http://diplomacyindia.com/development-of-agriculture-in-uzbekistan-during-the-years-of-independence-46719>